# XONLIKLAR DAVRI LIBOS MADANIYATINING ILMIY-NAZARIY HAMDA IJTIMOIY-MADANIY TADQIQI

**Xayitboboyeva Xurshida Pirmaxmatovna**
San’at tarixi va nazariyasi kafedrasi dotsenti

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada xonliklar davri libos madaniyatining ilmiy-nazariy hamda ijtimoiy-madaniy asoslari tadqiq etiladi. Xiva, Qo‘qon va Buxoro xonliklari davrida shakllangan an’anaviy liboslarning tarixiy rivojlanish bosqichlari, badiiy-estetik xususiyatlari, bezak unsurlari hamda ularning jamiyatdagi ijtimoiy mavqe va madaniy qadriyatlarni ifodalashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, liboslarning mahalliy urf-odatlar, diniy qarashlar, hunarmandchilik an’analari va etnomadaniy omillar ta’sirida shakllanishi yoritiladi. Tadqiqot natijasida xonliklar davri liboslari o‘zbek milliy madaniy merosining muhim tarkibiy qismi ekanligi hamda zamonaviy dizayn va amaliy san’at rivojida muhim manba sifatida xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Xonliklar davri, libos madaniyati, milliy libos, an’anaviy kiyim, Buxoro xonligi, Xiva xonligi, Qo‘qon xonligi, amaliy bezak san’ati, etnomadaniyat, badiiy-estetik xususiyatlar, hunarmandchilik an’analari, madaniy meros, milliy qadriyatlar, kiyinish madaniyati, bezak unsurlari.*

Xonliklar davri liboslarini ilmiy o‘rganish jarayoni murakkab manbashunoslik yondashuvini talab etadi. Mazkur davrga oid kiyim-kechak namunalari, yozma tarixiy manbalar, etnografik kuzatuvlar, sayyohlar qaydlari hamda muzey fondlarida saqlanayotgan buyumlar tadqiqotning asosiy manba bazasini tashkil etadi. Ushbu manbalar o‘z tabiati va mazmuniga ko‘ra xilma-xil bo‘lgani sababli, ularni aniqlash, tavsiflash va ilmiy tahlil qilish liboslar tarixining aniq faktologiyasini tiklashga xizmat qiladi.

Xonliklar davri libos madaniyatini o‘rganishda adabiyotlarga tayanish manbashunoslik va san’atshunoslik tadqiqotlarining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Yozma adabiy manbalar orqali liboslarning nafaqat tashqi ko‘rinishi, balki ularning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi o‘rni ham aniqlanadi. Tarixiy asarlar, badiiy matnlar va memuarlar kiyim-kechakning ramziy ma’nolari hamda estetik tasavvurlar tizimini yoritib beradi. Adabiy manbalar real buyumlar va arxeologik topilmalarni izohlashda qo‘shimcha interpretatsion asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, libos madaniyatini kompleks ilmiy o‘rganishda adabiyotlarga tayanish tarixiy rekonstruksiya va badiiy tahlilning ishonchliligini oshiradi.

Xasanboyeva. G.K. va Chursina. V.A. ning “Kostyum tarixi[1]” asari O‘zbekiston hududida kiyim-kechak madaniyatining shakllanishi va o‘zgarish jarayonlarini ilmiy-nazariy asosda yorituvchi fundamental tadqiqotlardan biridir. Mualliflar ayniqsa XIX asr hamda XX asrning birinchi yarmidagi liboslar evolyutsiyasini xonliklar ijtimoiy tuzilmasi, etnik an’analar, hunarmandchilik maktablari va tarixiy-madaniy jarayonlar bilan bog‘liq holda tahlil qiladilar. Ushbu yondashuv diplom ishining mazkur bo‘limi uchun muhim manbashunoslik asosini yaratadi. Asarda XIX asr xonliklaridagi liboslar tasvirlanar ekan, arxiv hujjatlari, etnografik kuzatuvlar, rus va yevropalik sayyohlarning qaydlari, shuningdek, muzey kolleksiyalaridagi

[1] Xasanboyeva. G.K va Chursina. V.A. “Kostyum tarixi”. “O‘zbekiston”. Toshkent-2002. 285-303 betlar

kiyim namunalariga tayangan holda kiyim shakllari, mato turlari, tikuv texnikasi va bezak elementlari chuqur tahlil qilingan.

Chopon, to‘n, kamzul, ayollar atlas va beqasam ko‘ylaklari, bosh kiyimlar kabi an’anaviy kiyim turlarining konstruktiv xususiyatlari, ijtimoiy vazifasi hamda marosimiy mazmuni ilmiy dalillar bilan ochib beriladi. “Kostyum tarixi” asardagi tahlillar xonliklar davri va uning ortidan kelgan davr kiyimlarining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Asarda keltirilgan etnografik materiallar, fotosuratlar, tikuvchilar amaliyotidan olingan ma’lumotlar va muzey eksponatlarining tavsifi liboslar tarixini o‘rganishda muhim birlamchi va ikkilamchi manba vazifasini bajaradi. Shu jihatdan, mazkur kitob xonliklar davri liboslarining tarixiy rivojlanishini o‘rganishda ham, XIX–XX asr liboslarida yuz bergan o‘zgarishlarning ilmiy asosini tushuntirishda ham diplom ishining nazariy-metodologik tayanch manbalaridan biri sifatida alohida ahamiyatga ega.

Nafisa Sodiqovaning “O‘zbek milliy kiyimlari XIX–XX asrlar[2]” nomli asari XIX–XX asrlarda o‘zbek milliy kiyimlari tarixini, ularning tarkibiy elementlarini, ishlatilgan matolarni, kiyim-kechak an’analari va hududiy farqlarini batafsil yoritadi. Kitobda shuningdek, milliy kiyimlarning tarixiy jarayonlar davomida qanday o‘zgarishlarga duch kelgani, ularning madaniy va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi.

Asar keng qamrovli matnli va illyustrativ materiallarni jamlagan bo‘lib, o‘zbek milliy kiyimlarining rivojlanish yo‘nalishlarini tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Kitobning ilmiy ahamiyati arxiv materiallari, xalq xotirasi hamda avvalo ilmiy tadqiqotlar asosida yaratilganligida namoyon bo‘lib, bu uning ishonchliligi va ilmiy asosini mustahkamlashga xizmat qiladi.

XV–XVII asrlarda chopon va boshqa ustki kiyimlarda tugmalar keng qo‘llangan bo‘lsa, XIX asrga kelib ular asta-sekin ilgak, bog‘ich va tasmalarga almashtirilgani choponning dizayni jamiyatdagi o‘zgarishlarga moslashib borganini ko‘rsatadi. Shuningdek, yoqa turlarining vaqt o‘tishi bilan farq qilishi — trapetsiyasimon keng yoqa, tor tik yoqa va qayriladigan yoqalar shaklida rivojlanishi, Buxoro maktabida XVIII–XIX asrlarda oltinga o‘xshatib yasalgan naqshlar va mo‘yna ishlatilishi, ustki kiyimlarning ijtimoiy tabaqalarga qarab farqlanganini tasdiqlaydi. Bu ma’lumotlar bitiruv malakaviy ishida milliy kiyimlar badiiy-estetik rivojini yoritishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tarixchilar Otajonov. Sh, Ilxomov. Z, Ishquvatov. V, Allayeva. N larning “O‘zbek xonliklari tarixshunosligi[3]” qo‘lyozmasi o‘zbek xonliklari tarixining o‘rganilishi, manbalar tizimi va ilmiy tadqiqotlarning shakllanish jarayonini yorituvchi fundamental ilmiy-nazariy manbalardan biridir. Kitobning muhim jihatlaridan biri — xonliklar davri haqida ma’lumot beruvchi yozma manbalar, arxiv hujjatlari, tarixiy yilnomalar, sayyohlar esdaliklari, etnografik ma’lumotlar va qo‘lyozma manbalar tizimli ravishda tasniflanganidir. Bu manbalar ichida aholining kundalik turmushi, madaniy an’analari, kiyinish madaniyati, marosimiy rasm-rusumlar haqida berilgan ma’lumotlar xonliklar davri liboslarini tadqiq etishda alohida ahamiyatga ega.

Mualliflar o‘z tadqiqotlarida xonliklar tarixshunosligining shakllanish bosqichlarini ilmiy asoslab, mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarning o‘ziga xos jihatlarini solishtirma tahlil qiladilar. Shu orqali xonliklar davri madaniy muhitining, jumladan, XIX–XX asr boshlaridagi kiyim-kechak namunalarining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar

[2] Nafisa Sodiqova. “O‘zbek milliy kiyimlari XIX-XX asrlar”. “Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririyati. Toshkent-2003

[3] Otajonov. Sh. Ilxomov. Z. Ishquvatov. V. Allayeva. N “O‘zbek xonliklari tarixshunosligi”, Toshkent 2011.

bilan bog‘liqligi haqida dolzarb nazariy xulosalar chiqaradi. Umuman olganda, “O‘zbek xonliklari tarixshunosligi” asari xonliklar davri ijtimoiy-madaniy jarayonlarini o‘rganishda keng manba bazasiga tayangan holda yondashadi. Mazkur qo‘llanmadagi tarixiy-nazariy tahlillar xonliklar davri liboslarini o‘rganishda manbashunoslik yondashuvini to‘g‘ri belgilash, mavjud manbalarni ilmiy talqin qilish va ushbu davr kiyim-kechak madaniyatini tarixiy kontekstda baholash uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Raxmatullayeva. D, Xodjayeva. U, Ataxanova. F, “Libos tarixi[4]” o‘quv qo‘llanmasi O‘zbekiston hududida kiyim-kechak madaniyatining shakllanishi, taraqqiyoti va badiiy xususiyatlarini davrlar kesimida o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy manbalardan biridir. Ushbu asar liboslar tarixini tizimli ravishda o‘rganuvchi, ularning tuzilishi, funksiyasi, bezak tizimi, mato turlari va milliy kiyimlarning tarixiy evolyutsiyasini izchil tahlil qiluvchi muhim ilmiy qo‘llanma hisoblanadi.

Fotima Asadiyning “Milliy, etnografik va badiiy liboslarni loyihalash[5]” asari milliy va etnografik kiyimlarning badiiy-estetik xususiyatlarini tizimli tahlil qiladi hamda ularni loyihalash jarayonidagi nazariy va amaliy asoslarni yoritadi. Asadiy milliy kiyimlarning rang, naqsh, mato tanlovi va bezak elementlari orqali ifodalanadigan badiiy xususiyatlarini batafsil tahlil qiladi. Kitobda Xonliklar davri kiyimlarining shakllanishida rang uyg‘unligi, geometrik va floristik naqshlar, mato va tikilish texnologiyalari kabi jihatlar asosiy o‘rinda turadi.

Muallif chopon uzunligi va shaklining ijtimoiy mansublik bilan bog‘liqligini ham ta’kidlaydi: zodagon xizmatkorlari tizzagacha chopon kiygan bo‘lsa, ziyolilar va ruhoniylar juda uzun, yerga tekkudek chopon kiygan, jismoniy mehnat egalari esa tizzadan biroz past, tor yengli chopon kiygan. Bu jihat choponning amaliy vazifasi bilan bir qatorda ijtimoiy mavqe belgisi sifatida ham xizmat qilganini ko‘rsatadi. Maqola hududiy farqlarning mavjudligini ham ochib beradi: masalan, Xorazm choponlari mayda choklar va silliq ishlovi bilan ajralib turgan, Buxoroda qisqa choponlar zamon ta’siri bilan paydo bo‘lgan, XIX asrda esa Tatar xalqlaridan kamzol kirib kelib, choponning yengil alternativiga aylangan.

Tadqiqotning ilmiy qiymati shundaki, muallif choponning nafaqat tarixiy ildizlarini, balki uning zamonaviy moda tizimidagi qayta tiklanish jarayonini ham yoritadi. Bugungi kunda choponning nafaqat milliy kiyim, balki xalqaro moda unsuri sifatida qabul qilinayotgani ham ilmiy xulosalarda asoslangan. Umuman olganda, mazkur manba chopon va erkaklar ustki kiyimlarining kesimi, funksional vazifasi, estetika va bezak tizimi, hududiy o‘ziga xosligi, tarixiy o‘zgarishlari va zamonaviy yangilanishini chuqur yoritgani sababli diplom ishining nazariy-metodologik bazasini mustahkamlaydigan eng asosiy ilmiy manbalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, etnografik ma’lumotlar asosida kiyimlarni loyihalash metodikasi va ularning hududiy xususiyatlari ko‘rsatib berilgan. Asar milliy kiyimlarni zamonaviy dizayn bilan uyg‘unlashtirishga oid tavsiyalarni ham o‘z ichiga oladi, bu esa Xonliklar davri liboslarining badiiy xususiyatlarini amaliy nuqtai nazardan tahlil qilish imkonini beradi.

Mualliflar liboslarni o‘rganishda arxeologik topilmalar, tarixiy manbalar, etnografik kuzatuvlar va muzey kolleksiyalaridagi namunalarga tayangan holda liboslarning qadimgi davrlardan XX asrga qadar bo‘lgan taraqqiyot ketma-ketligini ochib beradilar. Ayniqsa, asarning XIX–XX asrning birinchi yarmiga bag‘ishlangan bo‘limlari xonliklar davri liboslarini tushunishda muhim ilmiy asos yaratadi.

[4] D.Raxmatullayeva,, U. Xodjayeva,, F.Ataxanova,, “Libos tarixi”, “Sano-standart” nashriyoti, Toshkent 2015

[5] Fotima Asadiy. “Milliy, Etnografik va badiiy liboslarni loyihalash / O‘quv qo‘llanma. Toshkent “Extremum-press” 2016.

Xakimov. A, Nosirova. Z. va Nodir. B tomonidan tayyorlangan “O‘zbek xalq amaliy san’ati[6]” o‘quv qo‘llanmasi mamlakatimizdagi an’anaviy hunarmandchilik turlari, ularning tarixiy ildizlari va madaniy meros sifatidagi ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan zamonaviy ilmiy-nazariy manbalardan biridir. Ushbu asar an’anaviy libos madaniyatining shakllanishida amaliy san’at turlarining o‘rnini ochib beradi. Liboslardagi zardo‘zlik va kashtachilik naqshlari, mato to‘qish texnologiyalari, ranglar uyg‘unligi, bezaklarning ramziy mazmuni xalq amaliy san’atining bevosita mahsuli sifatida talqin qilindi. Shuningdek ushbu o‘quv qo‘llanmada yig’ilgan amaliy san’at ko’nikmalari bitiruv malakaviy ishi mavzusini ochib berishda asosiy manbalardan hisoblanadi.

Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklaridagi kiyinish madaniyati, ijtimoiy tabaqalanishga ko‘ra liboslar farqi, ayollar va erkaklar kiyimining konstruktiv xususiyatlari, matolar va bezaklarning ramziy mazmuni batafsil yoritilgan. Muallif an’anaviy atlas, adras, beqasam, shoyi kabi matolarning qo‘llanilishi, chopon, to‘n, ko‘ylak, bosh kiyimlar, marosimiy liboslar kabi kiyim turlarining shakllanishi va badiiy bezagi haqida ilmiy jihatdan asoslangan ma’lumotlar beradi. Ushbu tadqiqotda Kadirova Nozimaning “O‘zbek ayollar kiyimining boy tarixi va nafisligi timsoli[7]” nomli ilmiy maqolasi muhim manbalardan biri sifatida tahlil qilindi.

Maqolada chopon va boshqa ustki kiyimlar bezak tizimiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Zodagonlar kiyimlari ipak va oltin iplar bilan kashta qilinib, geometrik naqshlar, bordyurlar, rozetkalar va murakkab chiziqlar bilan boyitilgani, XVIII asrga kelib esa yengning bilak qismini to‘qilgan lentalar bilan bezash an’anasi keng tarqalganligi haqida to‘liq ma’lumot beriladi. Bu uslubning Markaziy Osiyo hududiga qadimgi Sharq va Shimoliy Afrikadan kirib kelgani haqidagi ilmiy fikrlar kiyimlar o‘zaro madaniy ta’sirlar natijasida shakllanganini tasdiqlaydi.

Maqola XIX asr Buxoro ayollarining milliy liboslari, ularning ramziy ma’nosi, amaliy vazifalari hamda mintaqa madaniy tarixini o‘rganishdagi o‘rni haqida keng qamrovli ilmiy ma’lumot beradi. Maqolada Markaziy Osiyo, xususan, Buxoro hududidagi ayollar kiyim-kechak madaniyati ming yillik tarixga ega ekani ta’kidlanadi.

Muallif arxeologik topilmalar milliy liboslarning kelib chiqishi va shakllanish jarayonini tiklashda asosiy manba bo‘lib xizmat qilishini qayd etadi. Bunda bosh kiyimlar, ko‘ylak, lozim, oyoq kiyimlari, taqinchoqlar kabi kiyim elementlarining qadimiy ildizlari ilmiy asosda ko‘rsatib o‘tiladi. Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri — milliy kiyimlar xalqning mentaliteti, dunyoqarashi va ruhiyatining aks-sadosi sifatida tahlil qilinishidir. Muallifga ko‘ra, an’anaviy o‘zbek libosi ajdodlarimizning turmush tarzi, estetik qarashlari, e’tiqodi va qo‘rquvlarini aks ettiruvchi ko‘zgu vazifasini bajaradi. Shu tariqa milliy kiyimlar etnografik va madaniy tarixni o‘rganishda ishonchli manba sifatida ko‘rishimiz mumkin

Saodat Tilovberdiyevna Davlatovaning “O‘zbek xalqining an’anaviy kiyimlari shakllanishi tarixidan[8]” nomidagi maqolasi o‘zbek milliy kiyimlarining rang-barangligi, badiiy boyligi va ijtimoiy mazmuni keng yoritilgan. Muallifning ta’kidlashicha, milliy liboslar xalqning ijtimoiy mavqei, hududiy mansubligi, shaxsiy hayotidagi quvonchli yoki g‘amli voqealar, urf-odatlar va marosimlar bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Bu yondashuv milliy

[6] Xakimov A., Nosirova Z., Nodir B., O’zbek xalq amaliy san’ati / O’quv qo’llanma. – Toshkent. 2019. – 130 b.
[7] Kadirova Nozima. “O‘zbek ayollar kiyimining boy tarixi va nafisligi timsoli”, IEJRD-xalqaro ko‘p tarmoqli jurnal, jild. 5. Kongress, p. 4, oktyabr. 2020.
[8] Saodat Tilovberdiyevna Davlatova. “O‘zbek xalqining an’anaviy kiyimlari shakllanishi tarixidan”. International Journal of Humanities, Literature&Arts,4(1),35-42. 18 June 2021|Revised: 09 July 2021| Accepted: 03 August 202135
https://doi.org/10.31295/ijhla.v4n1.1723ISSN 2632-9441

kiyimlarni oddiy maishiy predmet emas, balki xalqning ma’naviy-madaniy hayotini aks ettiruvchi muhim etnografik manba sifatida talqin qilish imkonini beradi. Shu bilan birga XIX asr oxiri va XX asrda ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarning kiyim-kechak madaniyatiga ta’siri chuqur tahlil qilingan.

Davlatovaning tadqiqotida milliy liboslarning shakllanishida etnik tarix, estetik qarashlar, diniy tasavvurlar va mafkuraviy unsurlarning tutgan o‘rni ham yoritilgan. Muallif milliy kiyimlarning faqat tashqi ko‘rinishi emas, balki ularning ramziy mazmuni, ma’naviy ahamiyati, estetik me’yorlari va jamiyatdagi ijtimoiy funksiyasini ham tahlil qiladi. Milliy liboslarning badiiy bezagi, mato ranglari va naqshlarining timsoliy ma’nosi ham alohida ilmiy izohlar bilan berilgan.

Kuzieva Malikaning “Xonliklar davri O‘zbek milliy liboslari tarixi[9]” asari tarixiy yozma manbalar, arxiv materiallari, muzey fondlaridagi eksponatlar, shuningdek, etnografik kuzatuvlarga tayanadi. Bu esa asarning ilmiy ishonchliligini oshiradi. Kuzieva liboslarning shakllanishiga iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillarning ta’sirini ko‘rsatib, xonliklar davridagi ijtimoiy tuzilma bilan kiyim elementlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi. Jumladan, erkak va ayollar liboslari, saroy kiyimlari, oddiy xalq kiyimlari, harbiy kiyimlar va marosim liboslarining o‘ziga xosliklari alohida tahlil qilingan.

Asarda hunarmandchilik – xususan, ipakchilik, to‘qimachilik, zardo‘zlik, kashtachilik kabi sohalarning libos yaratishdagi o‘rni keng yoritiladi. Bunda regional uslublar (Farg‘ona maktabi, Buxoro maktabi, Xorazm maktabi) orasidagi farqlar ilmiy asosda solishtiriladi. Mazkur yondashuv milliy liboslarning nafaqat estetik, balki tarixiy-madaniy identitetni shakllantirishdagi ahamiyatini aniqlash imkonini beradi. Xonliklar davri kiyim madaniyatiga oid ilgari parchalangan holatda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni bir tizimga solgani bilan ham qadrlidir.

“O‘zbekiston madaniy merosi” to‘plamining XLVIII[10] va XLIX[11] sonlarida “O‘zbekiston muzeylari va xususiy kolleksiyalari materiallari bo‘yicha an’anaviy o‘zbek liboslari” an’anaviy o‘zbek liboslarining shakllanishi, estetik xususiyatlari va taraqqiyot bosqichlarini o‘rganishga bag‘ishlangan muhim ilmiy-nazariy manbadir. Ushbu jildlarda O‘zbekiston muzeylari, xususiy kolleksiyalar hamda dalada to‘plangan etnografik materiallar asosida libos madaniyatining boy namunalarini tizimli ravishda hujjatlashtirish va ilmiy tahlil qilishga alohida e’tibor qaratilgan.

To‘plamlarda an’anaviy liboslarning tarixiy qatlamlari, shakl va bichim, mato turlari, bezak uslublari, kashtachilik, zardo‘zlik va to‘qimachilik an’analari keng yoritiladi. Ayniqsa, hududlar bo‘yicha liboslar uslubining farqlanishi – Farg‘ona vodiysi, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo an’anaviy kiyimlariga xos o‘ziga xosliklar alohida ilmiy solishtirish asosida taqdim etilgan. Bunda har bir libos namunasi muzey fondlaridagi real artefaktlar orqali tavsiflanganligi ushbu manbaning ilmiy ishonchliligini yanada oshiradi.

Mazkur jildlarning eng muhim jihatlaridan biri – liboslarning tarixiy funksiyasi va ijtimoiy maqom bilan bog‘liq ma’nolarining ochib berilganidir. Ayollar va erkaklar liboslari, turli yoshi va maqomidagi kishilar kiyimlari, marosim liboslari, kundalik va bayram kiyimlari kabi toifalar bo‘yicha aniq tasnif berilgan. Bu esa milliy liboslarni nafaqat moddiy madaniyat unsuri, balki ma’naviy-ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganish imkonini beradi. Ushbu to‘plamning

[9] Kuzieva Malika, “Xonlilklar davri O‘zbek milliy liboslari tarixi”, Toshkent 2022.
[10] O‘zbekiston madaniy me’ros to‘plam. XLVIII son. “O‘zbekiston muzeylari va xususiy kolleksiyalari materiallari bo‘yicha an’anaviy o‘zbek liboslari” 1-qism. 2022
[11] O‘zbekiston madaniy me’ros to‘plam. XLIX son. “O‘zbekiston muzeylari va xususiy kolleksiyalari materiallari bo‘yicha an’anaviy o‘zbek liboslari” 2-qism. 2022

metodologik ahamiyati shundaki, unda muzey ekspozitsiyalaridagi liboslar, xususiy kolleksiyalardagi nodir namunalar va ilmiy izohlar o‘zaro uyg‘unlashtirilib, boy vizual materiallar (foto, chizmalar, tasviriy tahlillar) bilan birgalikda berilgan. Bu yondashuv diplom ishida liboslarning shakli, konstruktsiyasi, badiiy bezagi yoki texnologik xususiyatlarini o‘rganishda ishonchli asos bo‘la oladi. “O‘zbekiston madaniy merosi”ning ushbu ikki jildi an’anaviy o‘zbek liboslari haqidagi eng mukammal va keng qamrovli manbalardan bo‘lib, milliy liboslarning tarixiy taraqqiyotini, hududiy farqlarini va badiiy-estetik jihatlarini ilmiy asosda yoritishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun diplom ishining nazariy qismi, xususan, tarixiy-etnografik asoslarini mustahkamlashda ushbu nashrlar asosiy manbalardan biri sifatida qo‘llanishi maqsadga muvofiqdir.

Markaziy Osiyo xalqlarining erkaklar ustki kiyimlari tarixini o‘rganishda Ochilova Shoira “O‘zbek xonliklari hukmronligi davrida O‘rta Osiyo xalqlarining tashqi kiyimlari[12]” nomli mazkur maqola muhim ilmiy manbalardan biri bo‘lib, unda chopon, kaftan, pustin, chakman kabi liboslar shakllanishi, ularning kesimi va bezak tizimi tarixiy-etnografik asosda atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqot XV–XIX asrlarga oid yozma manbalar, miniatyuralar va tasviriy san’at namunalariga tayanganligi bilan ahamiyatlidir. Muallif erkaklar ustki kiyimlarining kesimi asrlar davomida deyarli o‘zgarmaganini, biroq ayrim detallar — yoqa, tugma, bezak va yeng shaklida davriy o‘zgarishlar ro‘y berganini ilmiy asoslab beradi.

Esonov Ziyodbek “O‘zbekiston milliy liboslari tarixidan (Farg‘ona vodiysi materiallari misolida)[13]” nomli maqolasi milliy kiyimlarning shakllanish tarixi, ularning tarkibiy tuzilishi, bezak elementlari hamda etnik belgilarini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Maqolada milliy kiyimlarni o‘rganish etnologiya fanining muhim yo‘nalishlaridan biri ekanligi ta’kidlanib, milliy liboslarning xalqning etnik tarixi, madaniyati va boshqa xalqlar bilan etnomadaniy aloqalarini o‘rganishda asosiy mezonlardan biri ekani ilmiy asosda yoritilgan.

Muallif folklor ma’lumotlari, yozma manbalar, arxeologik topilmalar va ilmiy tadqiqotlar natijalaridan foydalanib, milliy kiyimlarning tarixiy rivojlanishini kompleks yondashuv asosida tahlil qiladi. Vaholanki alohida mavzulardan biri — sallaning o‘rni va ahamiyatidir. Muallif salla turkiy va eroniy xalqlar orasida qadimdan mavjud bo‘lganini, uning shakli, tikilish uslubi, bezak ramzlari va hududlarga xos farqlari haqida boy ma’lumot beradi.

Chust, Marg‘ilon, Qo‘qon nusxa do‘ppilari va ularning ramziy belgilari — bodom, qalampir, mehrab, ranglar hamda do‘ppidagi kosmogonik timsollar tarixiy va etnografik jihatdan asoslab berilgan. Bu esa milliy bosh kiyimlarning nafaqat amaliy, balki ma’naviy-ma’rifiy mazmunini ochib beradi. Maqola shuningdek turli tarixiy davrlarda bosh kiyimlarning ijtimoiy mavqe, tabaqalanish, yosh toifalari hamda diniy tasavvurlar bilan bog‘liq funksiyalarini ham ochib ko‘rsatadi. Masalan, oq sallaning “so‘fiy salla” nomi bilan yuritilgani, ruhoniylar yirik va ko‘p bog‘langan salla kiyishi, salla sovg‘a sifatida hurmat timsoli bo‘lgani kabi ma’lumotlar milliy kiyimlarning ijtimoiy va marosimiy ahamiyatini oshiruvchi muhim dalillardir. Xususan, to‘qimachilik sanoatining tez rivojlanishi, mato turlarining kengayishi, tikuvchilik texnikalarining takomillashuvi, aholi didining o‘sishi hamda turli madaniyatlar ta’sirining

[12] Ochilova Shoira ”O‘zbek xonliklari hukmronligi davrida O‘rta Osiyo xalqlarining tashqi kiyimlari”. INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS. Vol. 2 No. 4 (2023)
https://doi.org/10.51699/ijllal.v2i4

[13] Esonov Ziyodbek. “O‘zbekiston milliy liboslari tarixidan (Farg‘ona vodiysi materiallari misolida)”. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)ISSN (E): 2347-6915Vol. 12, Issue 11November(2024)

kuchayishi milliy kiyimlarda inqilobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirgani ilmiy asosda ko‘rsatib berilgan. Bu ma’lumotlar bitiruv malakaviy ishida milliy kiyimlarning modernizatsiya jarayonini yoritishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu tahlil qilingan manbaalar Xonliklar davri o‘zbek milliy liboslarining badiiy va madaniy xususiyatlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etib tarixiy, etnografik, badiiy va amaliy nuqtai nazardan o‘zaro uyg‘unlashgan holda tahlil qilindi. Xonliklar davri liboslari, bir tomondan, ularning tarkibiy elementlari, mato tanlovi, rang uyg‘unligi va naqsh bezaklari orqali o‘ziga xos badiiy estetik jihatlarni namoyon etsa, ikkinchi tomondan, ularning tarixiy va hududiy xususiyatlari orqali o‘zbek milliy kiyimlarining shakllanish jarayoni haqida chuqur tushuncha beradi. Xonliklar davri o‘zbek milliy liboslari nafaqat amaliy, balki badiiy-estetik qiymati bilan ham ajralib turadi. Ular rang, naqsh, mato tanlovi va tikilish texnologiyasi orqali o‘z davrining madaniy-estetik qarashlarini aks ettiradi.